

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA TEZ AYTISHLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATI VA O'RNI

Mohinur Baratboyevna Nizomova

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD), dotsent
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston.*

Rustamova Dilrabo Xurshid qizi

*QarDU Xorijiy til fakulteti-filologiya va tillarni
o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining kelib chiqishiga qisqacha tarif, tez aytishlarning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi o'rni, ularning xilma-xilligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq, tez aytish, xalq og'zaki ijodi, talaffuz, janr, urf-odat, xalq, darsliklar, maqollar, tovush, lingvistika.

Аннотация: В данной статье дается краткая характеристика происхождения народного устного творчества, рассматривается место скороговорок в устном народном творчестве узбеков, их разнообразие.

Ключевые слова: речь, скороговорка, народное устное творчество, произношение, жанр, обычаи, народ, учебники, пословицы, звук.

Annotation: This article provides a brief description of the origin of folk oral literature, discusses the role of tongue twisters in Uzbek folk oral creativity, and their variety.

Keywords: speech, tongue, twister, folk oral creativity, pronunciation, genre, customs, people, textbooks, proverbs, sound.

Kirish. Xalq og'zaki ijodi insonlar madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, unda xalqning turmush tarzi, qarashlari, urf-odatlari yaqqol sezilib turadi. O'zbek xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlaridan biri bu tez aytishlar bo'lib, undan yosh-u qari birdek foydalanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, tez aytishlar inson nutqini o'stirish, xotira va diqqatni kuchaytirishga yordam beradi, shuning uchun ular bilan bolalikdanoq mashg'ulotlar olib boriladi. Tez aytishlar murakkab va soddaligiga ko'ra turli xil yoshlar tomonidan foydalaniladi. Ushbu maqolada yuqoridagi barcha mavzular batafsil yoritib berilgan.

Asosiy qism: Tez aytishlarning kelib chiqishi va mohiyati. Odamlar qadimdan atroflarida yuz berayotgan voqea-hodisalarga fikrlarini bildirishgan. Ular voqealarni

xatti-harakatlar orqali tasvirlab, so'zlar orqali unga jilo berib, tinglovchining ongida uni shakllantirishgan. Ota-bobolarimiz pand-nasihatlarni, urf-odatlarini, shuningdek, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi insonlarning jasoratlarini yoshlarga singdirish uchun turli xil hikoya, matal, ertak, maqol, topishmoq va tez aytishlardan foydalanishgan. Bora-bora bu urinishlar yangi bir janr, ya'ni xalq og'zaki ijodining shakllanishiga olib kelgan. Dastlab u faqat og'zaki shaklda bo'lgan, keyinchalik yozma shaklga o'tib, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga meros qolib, tobora mukammallashib, sayqallanib borgan.

Nizomova M. B. ta'kidlaganidek: "Tilshunoslikda nutqni rivojlantirish hozirgi glaballashuv jarayonida muhim vazifa sanaladi. Aytish mumkinki, hozirginkunda tilni qadriyatlar bilan o'rgatish ustuvor metodlardandir"²⁷.

Xalq og'zaki ijodi har bir xalqda mavjud bo'lib, unda o'sha yerda istiqomat qiluvchi insonlarning yashash tarzi, madaniyati, urf-odati, qadriyatlari, borliqda mavjud bo'lgan narsalarga qarashlari aks etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi ham o'zining xilma-xilligi va boyligi bilan ajralib turadi. Ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, matallar va boshqa turli og'zaki ijod turlari orqali xalqimizning qanchalik donishmandligi va boy dunyoqarashga egaligi yaqqol sezilib turadi. Masalan, "Alpomish" dostoni-xalqimizning vatanparvarlik, qahramonlik g'oyalarini ko'rsatadi. O'zbek xalq og'zaki ijodining xilma-xilligi qo'shiqlar, laparlar, yallalar, dostonlar, latifalar, maqollar, topishmoqlar va tez aytishlarda ko'rinib turadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ajralmas o'rni bor bo'lgan tez aytishlar-adashib ketish mumkin bo'lgan qofiyadosh so'zlardan tuzilib, muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli harflarga urg'u beriladi va aynan shu harf takrorlashdagi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Masalan:

"Qishda kishmish pishmasmish.

Pishsa kishmish, qishmasmish."

Bu yerda "sh" tovushi har bir so'zda mavjudligi sababli talaffuzni qiyinlashtiradi. Yana bir misol:

"Salim g'ildirakni g'ildiratib g'izillatdi."

Bunda esa "g" harfi takrorlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Tez aytishlarning boshqa janrlardan ajralib turadigan jihati ham shunda, ya'ni, ularning bir xil tovushlarni ko'p takrorlash orqali hosil bo'lishi maqollardan farqlab turadi. Qolaversa, tez aytishlar biror hikmatli g'oyani bildirish uchun emas, aksincha, nutqni ravon, talaffuzni osonlashtirish uchun ishlatiladi.

Qadimda tez aytishlar "adashish", "tutal", "chalg'ituv" degan nomlar bilan atalgan va ulardan asosan kattalar foydalangan. Keyinchalik tez aytishlar bolalar folkloriga

²⁷ Nizomova M. B. Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning leksikografikasida formal-strukturaviy tahlil // Qarshi davlat universiteti xabarлари: ilmiy-nazariy jurnal. – Qarshi, 2023. – №1/2 (57). – B. 139–145.

qo'shilgan. Tez aytishlar bolalarni o'yin orqali jalb qiladi, ya'ni, bir minut ichida kim ko'p takrorlay olishini sinaydi. Bu orqali bolalar nutqi to'g'ri shakllanadi, tez aytishdagi keyingi so'zni eslab qolish uchun diqqati jamlab, xotirasini kuchaytiradi.

Tez aytishlar bolalar qaysi harfni talaffuz qilishda qiynalayotganiga qarab tanlanadi, masalan, aksariyat bolalar nutqida "r" harfini talaffuz qilish bilan bog'liq muammolar mavjud va ushbu muammoga jiddiy qaralmasa, nutqiy nuqson bo'lib qolib ketish ehtimoli ham bor. Shuning uchun ularga "r" tovushi mavjud tez aytishlarni ko'proq aytirish lozim. Masalan:

"Ruxsor Ra'nodan ranjidimi?

Ra'no Ruxsordan ranjidimi?"

Tez aytishlarning turlari va xususiyatlari

O'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishlar kimlar tomonidan ishlatilishiga, qanday tarkib topganiga ko'ra turli xil bo'ladi.

Ayrim tez aytishlarni takrorlash bolalar uchun qiyinchilik tug'diradi, shuning uchun bunday tez aytishlar kattalarga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan:

"Bir tup tut. Bir tup turp.

Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.

Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi.

Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

Bir tup tutning tomirini turtib turgan bir tup turpning tomirini bir tup tutning tomiri turtib turibdi.

Bir tup turpning tomirini turtib turgan bir tup tutning tomirini bir tup turpning tomiri turtib turibdi."

Ba'zi tez aytishlar kattalar uchun osonlik qiladi va ular bolalar uchun mo'ljallangan. Masalan:

"Ayiqlar asal yaladi, asallari taladi."

"Lola arralaydi, Sora allalaydi."

"Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi."

Shuningdek, so'z o'yinlari orqali kelib chiqqan tez aytishlar ham mavjud bo'lib, qadimda insonlar yig'inlarda kim ko'p tez aytishda musobaqalashishgan.

"Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq."

Jumladan, tez aytishlarning xususiyatlari haqida gapiradigan bo'lsak, hayolimizga dastlabki kelgan fikr, albatta, ularning nutqni ravonlashtirishdagi ahamiyati keladi. Darhaqiqat, tez aytishlar- so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, hozirjavoblikka, xotirani charhlashga yordam berganligi sababli O'zbekistonda boshlang'ich sinf darsliklarida tez aytishlar bilan bog'liq mashg'ulotlarni uchratamiz. Masalan birinchi sinf darsligida quyidagi tez aytish keltirilgan:

"Dildora – Dinoraning dugonasi,

Dinora – Dilnozaning dugonasi.”(1-sinf uchun darslik, 123-bet)

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarga tayanib shuni ayta olamanki, o'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishlarning alohida o'rni bor va u boshqa janrlardan yaratilishi, asosiy g'oyasi va foydalanilishi bilan farqlanib turadi. Undan nafaqat yoshi kattalar, balki yosh bolalar ham birdek foydalanadi va zavq oladi. Yurtimizda o'quv darsliklarida ham tez aytishlar mavjudligi bejizga emas, chunki bolalar nutqini yoshlikdan mukammal qilishda tez aytishlarning o'rni katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: Mumtoz so'z. 2010.
2. Usmonova N.S. Fransuz va o'zbek tillaridagi tez aytish va topishmoqlar: shakllari va tasnifi. Progress Annuals: *Journal of Progressive Research*. 2025.
3. Xaytboyeva M. Nutq rivojlanishida tez aytishlarning o'rni. *JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*. 2023.
4. Azimov A. N. Tez aytishlar fonetik trenajyor sifatida. *SCIENCE AND INNOVATION*. 2022.
5. Tez aytish. Uz.m.wikipedia.org
6. Tez aytish. Malumot.ru
7. Tez aytish san'ati: nutq mahoratini oshirish siri. Ifazo.uz
8. TOP-30 o'zbekcha tez aytishlar to'plami bolalar uchun. MyFarzand.uz
9. Xalq ijodi. Uz.wikipedia.org